

BOLA HUQUQLARINI XALQARO HUQUQIY HIMOYA QILISH

Nodir Ramazonov

O'zbek tili va adabiyoti kafedrası mudiri, filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent, Toshkent davlat yuridik universiteti

Berdiyev Ibrohim

Toshkent davlat yuridik universiteti talabasi

Annotatsiya: mazkur maqolada bola huquqlarini xalqaro darajada himoya qilishning huquqiy asoslari, xalqaro shartnomalar, konvensiyalar va monitoring mexanizmlari tahlil qilinadi. Shuningdek, bola huquqlarini ta'minlashdagi dolzarb muammolar va ularni hal etish bo'yicha xalqaro amaliyotlar o'rganiladi.

Kalit so'zlar: bola huquqlari, BMT, Konvensiya, xalqaro huquq, inson huquqlari, monitoring, UNICEF.

МЕЖДУНАРОДНО-ПРАВОВАЯ ЗАЩИТА ПРАВ ДЕТЕЙ

Нодир Рамазонов

Заведующий кафедрой узбекского языка и литературы, доктор философии (PhD) по филологии, доцент Ташкентского государственного юридического университета

Бердиев Ибрагим

Студент Ташкентского государственного юридического университета

Аннотация: в статье анализируются правовые основы защиты прав детей на международном уровне, международные договоры, конвенции и механизмы мониторинга. В нем также изучаются актуальные проблемы обеспечения прав детей и международная практика их решения.

Ключевые слова: права детей, ООН, Конвенция, международное право, права человека, мониторинг, ЮНИСЕФ.

INTERNATIONAL LEGAL PROTECTION OF CHILDREN'S RIGHTS

Nodir Ramazonov

Head of the Department of Uzbek Language and Literature, Doctor of Philosophy (PhD) in Philology, Associate Professor, Tashkent State Law University

Berdiyev Ibrohim

Student of Tashkent State University of Law

Abstract: *this article analyzes the legal framework for the international protection of children's rights, international treaties, conventions and monitoring mechanisms. It also studies current problems in ensuring children's rights and international practices in solving them.*

Keywords: *children's rights, UN, Convention, international law, human rights, monitoring, UNICEF.*

Bola – jamiyatning eng himoyasiz qatlamidir. Shu bois, bola huquqlari masalasi dunyo miqyosida alohida e’tibor talab etadigan dolzarb ijtimoiy-huquqiy masalalardan biridir. Birlashgan Millatlar Tashkiloti tomonidan 1989-yilda qabul qilingan **“Bola huquqlari to‘g‘risida”**gi Konvensiya bola huquqlarini xalqaro huquqiy himoya qilish sohasida asosiy hujjat hisoblanadi.¹ Ushbu maqolada xalqaro huquq normalarining bola huquqlarini kafolatlashdagi o‘rni, ularning bajarilishini ta’minlash mexanizmlari va milliy qonunchilik bilan uyg‘unligi tahlil qilinadi.

Bola huquqlarini xalqaro huquqiy himoya qilish – bu bolalarning asosiy inson huquqlarini xalqaro darajada tan olish, himoya qilish va ilgari surishni nazarda tutuvchi mexanizmlar, konvensiyalar, institutlar va tashabbuslar yig‘indisidir. Bu tizim bolalarning hayoti, sog‘ligi, ta’lim olishi, zo‘ravonlikdan himoyalaniishi, ijtimoiy va madaniy rivojlanishi kabi sohalarda huquqlarini ta’minlashga xizmat qiladi.

Bola huquqlari to‘g‘risidagi konvensiya (1989) BMT Bosh Assambleyasi tomonidan qabul qilingan 54 moddadan iborat bo‘lib, bolalarning barcha sohalardagi huquqlarini belgilaydi. Asosiy prinsiplari: kamsitmaslik (har qanday

¹ Воронова, В. Н. (2020). Международно-правовая защита прав детей. In Актуальные вопросы научных исследований. Материалы Международной (заочной) научно-практической конференции (р. 105). SJIF: 5.051

diskriminatsiyaga qarshi), bola manfaatlari ustuvorligi, hayot va rivojlanish huquqi, bola fikrini hurmat qilish.²

Bola huquqlari – har bir bola (18 yoshga to‘lmagan shaxs bola hisoblanadi) hech qanday cheklashlarsiz ega bo‘lishi lozim bo‘lgan huquq va erkinliklardir. Bolalar va yoshlar kattalar bilan bir xil inson huquqlariga ega va bu barcha tomonidan tan olinadi.

Bola huquqlarining ta’rifi mantiqan Inson huquqlari umumjahon deklarasiyasining asosiy g‘oyalaridan kelib chiqadi. Uning alohida moddasi bolalarga bag‘ishlangan. Unda aytilishicha, "Onalik va bolalik alohida g‘amxo‘rlik va yordam olish huquqini beradi". Shunday qilib, deklaratsiyada e‘lon qilingan barcha erkinliklarga bolalarning teng huquqliligini tan olgan holda, xalqaro hamjamiyat bolalarga qo‘shimcha yordam va qo‘llab-quvvatlash zarurligini tan oladi. Ya’ni, bolalar o‘zlarining maxsus ehtiyojlari, shuningdek ekspluatasiya va suiiste’molliklarga nisbatan zaifligi tufayli qo‘shimcha huquqlarga ega.

10 yil davomida (1979-yildan 1989-yilgacha) BMTning Inson huquqlari bo‘yicha komissiyasida ishtirok etgan dunyoning ko‘plab mamlakatlari mutaxassislari bola huquqlari to‘g‘risidagi yangi hujjatning matnini ishlab chiqdilar, unda bolaning jamiyatdagi hayotining barcha jabhalari maksimal darajada hisobga olinadi. 1989-yil 20-noyabrda Birlashgan Millatlar Tashkilotining Bola huquqlari to‘g‘risidagi konvensiyasi BMT Bosh Assambleyasi tomonidan qabul qilindi. Shu bilan barcha mamlakatlar butun dunyo bo‘ylab bolalar oldida tarixiy majburiyat oldilar. Bu tarixdagi eng ko‘p ratifikatsiya qilingan inson huquqlari bo‘yicha shartnomaga aylandi va butun dunyo bo‘ylab bolalar

² Маркелова, М. Н. (2019). Международно-правовая защита прав детей в условиях вынужденной миграции. Москва.

hayotining o'zgartirishga yordam berdi. O'zbekiston Respublikasi ushbu Konvensiyaga 1992 yil 9 dekabrda qo'shilgan.

O'zbekiston Respublikasi 2008-yil 11-dekabrda Bola huquqlari to'g'risidagi konvensiyaga doir bolalar savdosi, bolalar fohishabozligi va bolalar pornografiyasiga taalluqli Fakultativ protokolni, 2008-yil 12-dekabrda Bola huquqlari to'g'risidagi konvensiyaga doir, bolalarning qurolli mojarolarda ishtirokiga taalluqli Fakultativ protokolni ratifikatsiya qilga

Bola huquqlari to'g'risidagi konvensiyaga qo'shimcha protokollar

Bolalarni qurolli mojarolarda ishtirok etishdan himoya qilish. Bolalar savdosi, fohishabozlik va pornografiyaga qarshi kurash.

Xalqaro institutlar va mexanizmlar:

BMTning Bola huquqlari qo'mitasi.

Konvensiyaga a'zo davlatlarning yillik hisobotlarini ko'rib chiqadi.

Tavsiyalar va tanqidiy baholar beradi.

Shikoyatlarni ko'rib chiqish vakolatiga ega (agar davlat uchinchi protokolni ratifikatsiya qilgan bo'lsa).

Xalqaro huquqiy mexanizmlar bola huquqlarining buzilishining oldini olish va himoya qilishda muhim ahamiyatga ega. Biroq, ayrim mamlakatlarda, ayniqsa, qurolli mojarolar, migratsiya, bolalar mehnatidan foydalanish yoki majburiy nikohlar holatlarida bola huquqlari jiddiy buzilmoqda. BMT va UNICEF ushbu muammolarni yengillashtirish uchun qator global dasturlarni amalga oshirmoqda.

O'zbekiston bu borada sezilarli yutuqlarga erishgan bo'lsa-da, hali ham bolalar zo'ravonligi, mehnat ekspluatatsiyasi, nogironligi bor bolalarga bo'lgan e'tibor va ularga inklyuziv yondashuv masalalarida islohotlar davom etmoqda.

Bola huquqlarini xalqaro huquqiy himoya qilish tizimi – bu bolalarning or-nomosini, hayoti va kelajagini himoya qilish uchun yaratilgan eng muhim mexanizmlardan biridir. U davlatlardan o‘z zimmasiga olgan majburiyatlarni bajarishni, bolalarning haq-huquqlarini hurmat qilishni va global miqyosda bolalarga barobar imkoniyatlar yaratishni talab qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Воронова, В. Н. (2020). Международно-правовая защита прав детей. In Актуальные вопросы научных исследований. Материалы Международной (заочной) научно-практической конференции (р. 105).
2. Маркелова, М. Н. (2019). Международно-правовая защита прав детей в условиях вынужденной миграции. Москва.